

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Mardonova Shoxsanam Baxodirovna

*Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti, E-mail:
bekzodd741@mail.com*

Annotatsiya: Ushbu tezisda tijorat banklari faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi aktivlarni boshqarish masalalari chuqur tahlil qilingan. Bank aktivlari – bu bank tomonidan foyda olish maqsadida joylashtirilgan moliyaviy resurslar bo‘lib, ularni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tezisda tijorat banklari aktivlarini shakllantirish manbalari, ularning tuzilmasi hamda klassifikatsiyasi yoritilib, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari va yondashuvlar tahlil etilgan. Tadqiqot davomida aktivlarni boshqarishda likvidlik, rentabellik, xavfsizlik va diversifikatsiya kabi asosiy tamoyillarning muvozanatini saqlash zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, tezisda O‘zbekiston tijorat banklari misolida aktivlarni boshqarish amaliyoti, mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Jumladan, aktivlar sifati va samaradorligini oshirishda risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish, kredit portfeli diversifikatsiyasini ta’minlash, ilg‘or axborot texnologiyalaridan foydalanish va xalqaro standartlar asosida ichki nazorat tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, bank aktivlari, aktivlarni boshqarish, bank resurslari, likvidlik, daromadlilik, kredit portfeli, risklarni boshqarish, investitsion faoliyat, moliyaviy tahlil, aktivlar portfeli, raqamli bank xizmatlari, bank kapitali.

Mamlakatda iqtisodiy islohotlar jadallik bilan olib borilayotgan hozirgi sharoitda moliyaviy sektor, ayniqsa, tijorat banklari faoliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, aholi va tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish borasida tijorat banklarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tijorat

banklarining aktivlarini samarali boshqarish masalasi bugungi kundagi eng dolzarb mavzulardan biri sanaladi.

Tijorat banklarining aktivlari bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Ular bank tomonidan joylashtirilgan mablag'lar, ya'ni kreditlar, investitsiyalar, naqd pul mablag'ları, boshqa moliyaviy vositalar va moddiy boyliklar shaklida bo'ladi. Ushbu aktivlar bankning foyda keltiruvchi resurslarini tashkil etadi. Shunday ekan, ularni to'g'ri boshqarish nafaqat bankning ichki moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki butun moliyaviy tizimning barqarorligi va samaradorligiga ham bevosita ta'sir qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Banklarning kapital bazasi mustahkamlanmoqda, xalqaro moliyaviy standartlar joriy qilinmoqda, raqamli texnologiyalar asosida yangi xizmatlar tatbiq etilmoqda. Bu esa tijorat banklari oldiga aktivlarni boshqarishda yangi yondashuvlar va zamonaviy vositalardan foydalanish zaruratini qo'ymoqda. Xususan, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat kuchaygan sari, banklar o'z aktivlarini samarali va xavfsiz joylashtirishga, kredit risklarini kamaytirishga, investitsion loyihalarni sinchkovlik bilan tanlab moliyalashtirishga harakat qilmoqda.

Bank aktivlarini boshqarishning murakkabligi shundaki, bu jarayon turli ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omillarga bankning moliyaviy holati, likvidlik darajasi, xodimlarning malakasi, boshqaruv tizimi kiradi. Tashqi omillar esa umumiy iqtisodiy vaziyat, inflatsiya darajasi, soliq siyosati, regulator organlarning talablari va xalqaro moliyaviy bozorlarning holati bilan bog'liq bo'ladi. Ana shunday o'zaro bog'liq va ko'p qirrali jarayonda aktivlarni boshqarish tizimi nafaqat mavjud mablag'larni samarali ishlatishni, balki bo'lajak moliyaviy oqimlarni ham to'g'ri prognozlashni talab etadi.

Tijorat banklari uchun aktivlar daromad manbai hisoblanadi. Aynan shu aktivlar orqali banklar foyda oladi, xarajatlarini qoplaydi va o'z faoliyatini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, banklar har doim aktivlar portfelini maksimal darajada foydali va kam xavfli shaklda tashkil etishga intiladi. Kreditlar bank aktivlarining asosiy qismini tashkil qilgani sababli, ularni tahlil qilish, to'lovga layoqatlilikni baholash, ta'minotlar bilan kafolatlash kabi masalalar bank faoliyatida alohida o'rin egallaydi. Bundan tashqari,

obligatsiyalar, aksiyalar, davlat qimmatli qog‘ozlariga investitsiya kiritish, boshqa banklar bilan hisob-kitoblar qilish, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish ham tijorat banklarining aktivlarini shakllantiradi.

Biroq bank aktivlarini boshqarishda faqat daromad olishni ko‘zlash yetarli emas. Bunday yondashuv uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlay olmaydi. Shu bois, risklarni boshqarish, ya’ni har bir operatsiyaning ehtimoliy yo‘qotishlarini oldindan baholash va ularni kamaytirish choralari ko‘riliishi lozim. Bugungi kunda banklar bu maqsadlar uchun zamонавиy texnologiyalardan – axborot tizimlari, moliyaviy tahlil dasturlari, sun’iy intellekt asosidagi modellar va boshqa vositalardan foydalanmoqda. Bu esa aktivlar boshqaruvining sifatini oshirish bilan birga, inson omili ta’sirini kamaytiradi.

Yana bir muhim jihat – bu aktivlarning tarkibiy tuzilmasidir. Har bir bank o‘z faoliyati yo‘nalishiga qarab, aktivlar portfelini shakllantiradi. Ayrim banklar korporativ mijozlarga ko‘proq xizmat ko‘rsatsa, boshqalar jismoniy shaxslar bilan ishlashga ixtisoslashgan bo‘ladi. Shu bois, aktivlarni boshqarish strategiyasi ham har bir bankda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shunga qaramay, umumiy yondashuvar mavjud: likvid aktivlar ulushini ushlab turish, uzoq muddatli investitsiyalarni ehtiyyotkorlik bilan amalga oshirish, kredit risklarini diversifikatsiya qilish, qarzdorlar bo‘yicha monitoring tizimini kuchaytirish kabi omillar barcha tijorat banklari uchun muhim sanaladi.

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda, pandemiya va geosiyosiy notinchliklar ortidan bank tizimida ham turli xavf-xatarlar yuzaga chiqmoqda. Banklar nafaqat foyda olishni, balki risklarni oldindan aniqlash, ularning salbiy ta’sirini kamaytirish choralarini ko‘rishga majbur bo‘lmoqda. Xususan, aktivlar sifati masalasi dolzarb bo‘lib, muammoli kreditlar ulushi, ularni qaytarish mexanizmlari, zaxiralar darajasi bank moliyaviy barqarorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida e’tiborga olinmoqda.

Bugungi kunda banklar faoliyatida zamонавиy texnologiyalar, sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari keng joriy etilayotgani sababli aktivlar boshqaruviga ham innovatsion yondashuvar kirib kelmoqda. Bunda risklarni minimallashtirish, diversifikatsiya, likvidlikni saqlab qolish, foydalilikni oshirish kabi strategik yo‘nalishlar muhim o‘rin tutadi. Har bir bank o‘zining moliyaviy holati, mijozlar segmenti, bozor sharoiti

va davlat siyosatiga mos holda aktivlarni boshqaradi. Quyidagi jadvalda tijorat banklari aktivlarini boshqarishda eng muhim hisoblangan asosiy yo‘nalishlar tizimli tarzda keltirilgan (1-rasm):

1-jadval

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari¹

№	Yo‘nalish nomi	Tavsifi
1	Kredit portfelini boshqarish	Asosiy daromad manbai hisoblangan kreditlar sifatini oshirish va risklarni kamaytirish.
2	Aktivlarni diversifikatsiya qilish	Investitsiyalar va kreditlarni turli sohalar va segmentlar bo‘yicha taqsimlash.
3	Likvidlikni boshqarish	Bankning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ta’minlash.
4	Investitsion strategiyalarni ishlab chiqish	Qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy vositalarga sarmoya kiritish orqali daromad olish.
5	Muammoli aktivlarni boshqarish	Qaytmaslik xavfi yuqori bo‘lgan aktivlarni aniqlash va tiklash bo‘yicha chora ko‘rish.
6	Risklarni boshqarish	Kredit, likvidlik, valyuta va boshqa xavflarni tahlil qilish va ularni minimallashtirish.
7	Aktivlar portfelining tahlili	Aktivlarning strukturasini muntazam tahlil qilish va samaradorlikni oshirish.
8	Moliyaviy monitoring va audit	Ichki nazorat mexanizmlari orqali aktivlar holatini baholash.
9	Raqamli texnologiyalarni joriy etish	Aktivlarni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali boshqarish samaradorligini oshirish.
10	Xalqaro standartlarga moslashuv	IFRS va boshqa xalqaro moliyaviy standartlar asosida aktivlarni yuritish.

Yuqoridagi jadvalda tijorat banklari aktivlarini boshqarishning o‘nta asosiy yo‘nalishi tizimli tarzda yoritildi. Tijorat banklarining faoliyatida aktivlarni boshqarish juda muhim

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan

ahamiyatga ega. Ushbu jadvalda keltirilgan asosiy yo‘nalishlar bank resurslaridan samarali foydalanish, risklarni kamaytirish va barqaror daromad olishga xizmat qiladi. Eng avvalo, kredit portfelini boshqarish yo‘nalishi bank daromadlarining asosiy manbai bo‘lib, uning sifati butun bank tizimi barqarorligiga ta’sir qiladi. Shu bois kreditlashda mijozlarning to‘lov qobiliyati, ta’milot va shartlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Diversifikatsiya esa aktivlar xavfsizligini oshiradi. Barcha resurslarni bitta soha yoki mijoz turiga yo‘naltirish risklarni kuchaytiradi. Shu sababli, aktivlarni turli sohalarga taqsimlash orqali banklar o‘zini muqobil xavflardan himoya qiladi. Likvidlikni boshqarish esa bankning majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishiga yordam beradi. Bu bilan mijozlar ishonchi saqlanib qoladi.

Investitsiya faoliyati orqali esa banklar ortiqcha mablag‘larini samarali ishlataadi. Qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy vositalarga sarmoya kiritish orqali qo‘srimcha daromad olish imkonini yaratiladi. Shuningdek, muammoli aktivlarni boshqarish va ichki audit tizimining mavjudligi bankni moliyaviy barbod bo‘lish xavfidan saqlaydi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish esa aktivlar boshqaruvini avtomatlashtirish orqali tezkor va ishonchli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu tarzda har bir yo‘nalish bank moliyaviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-580-sonli Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-yil 3-iyundagi “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi 3254-sonli Qarori
3. A.R.Qodirov. Tijorat banklarida raqamli texnologiyalar asosida aktivlarni boshqarish. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali, 2023, №2. – B. 47–53.
4. Z.R.Xidirova. Bank aktivlariga makroiqtisodiy omillarning ta’siri. // “Moliyaviy tahlil” jurnali, 2022, №4. – B. 29–36.

5. Z.Mamadiyarov, A.Norov, O'.Haydarov. Bank ishi va moliya asoslari. Darslik –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 240 b.
6. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi sayti
7. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sayti
8. <https://cbu.uz/> – O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki sayti